

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

S.MAHMUDOVA	
“Turgʻunoy Egamberdiyeva – Fargʻonalik ayollarning gultojidir”	6
	PEDAGOGIKA
X.Kadirov, B.Xamdamov	
Oliy taʼlim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati	8
L.Yoʻldosheva	
Muzeylarda turli xil mashgʻulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	13
M.Alimjanova	
Taʼlimning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari	17
B.Xaydarov	
Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
G.Absalamova	
Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiyasi tushunchasi.....	28
F.Mirzayeva	
Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
	IQTISODIYOT
T.Xaydarov, B.Karimov	
Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi	36
	FALSAFA, SIYOSAT
N.Hakimov, D.Amrudinova	
Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
I.Raximov	
Oʻzbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon koʻp millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari	48
R.Isamutdinov	
“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
S.Xoliqov	
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha vazifalarining oʻziga xos jihatlari	57
	TARIH
M.Xurramov	
1991 - 2016 yillarda Oʻzbekiston-Qozogʻiston munosabatlarida Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari	61
R.Arslonzoda	
Istiqlol yillarida Oʻzbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi	69
I.Gʻulomov, Z.Kasimova	
Oʻzbekiston SSR aholisini roʻyxatga olish	76
Gʻ.Haydarov	
Fargʻona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi	83
G.Dadamirzayeva	
Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Fargʻona viloyati artellarining faoliyati.....	88
A.Abduali	
Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri oʻrinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
M.Darmonova	
“Katta qirgʻin”ning yosh qurboni.....	103
L.Sokolova	
Fargʻona vodiysi: ustozga bagʻishlanish marosimining shakllari	107
O.Zaripov	
“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi	113

ISTIQLOL YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA ARXIV ISHI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ АРХИВНОГО ДЕЛА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

FORMATION OF THE LEGISLATIVE BASIS FOR ARCHIVING IN UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Arslonzoda Rahmatjon Arslonboyevich¹

¹Arslonzoda Rahmatjon Arslonboyevich

– Farg‘ona davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrası dotsenti.

Аннотация

Davlat arxiv tizimining samarali faoliyat olib borishi ko‘p jihatdan arxiv ishi uchun huquqiy maydon barpo etish bilan bog‘liqdir. Maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining shakllanish jarayoni ochib beriladi. Hozirgi kunga qadar ushbu mavzu tarix va arxivshunoslik fanida maxsus o‘rganilmagan. Sh.A.Hayitov va A.X.Hamroyevlar qalamiga mansub “O‘zbekiston Respublikasining arxiv qonunchiligi” (2008) nomli hajman katta bo‘lmagan kitob nashr etildi, ammo bu nashr asosan arxiv ishiga doir qonun va qarorlardan iborat to‘plam bo‘lib, unda ushbu qonunchilik hujjatlari ilmiy jihatdan tahlil etilmagan. Maqola uchun asosiy manba sifatida O‘zbekiston Respublikasining arxiv ishi to‘g‘risidagi qonunlaridan hamda ularga mos ravishda respublika Prezidenti va hukumati tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlardan foydalanildi. Mavzuni yoritish uchun elektron resurslar va mavjud ilmiy adabiyotlar jalb etildi. Maqola ustida ishlash jarayonida retrospektiv usul, tizimli yondashuv, muammoli-xronologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida arxiv ishi uchun huquqiy asos barpo etilganligi tufayli arxiv muassasalari faoliyatida ko‘p ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi, degan xulosa qilinadi.

Аннотация

Оптимальное функционирование государственной архивной системы во многом зависит от создания правового поля для ее деятельности. В статье пролеживается процесс формирования правовых основ архивного дела в Узбекистане в годы независимости. На сегодняшний день данная тема в исторической и архивоведческой литературе специально не изучена. Опубликована небольшая книга Ш.А.Хайитова ва А.Х.Хамраева “Архивное законодательство Республики Узбекистан” (2008), но она представляет собой сборник законов и постановлений по архивному делу, в ней эти законодательные акты не подвергнуты научному анализу. Основными источниками для написания статьи послужили законы Республики Узбекистан по архивному делу и соответствующие постановления правительства республики. Были привлечены также электронные ресурсы и существующая научная литература. При подготовке статьи были использованы такие методологические приемы, как ретроспективный метод, системный подход, проблемно-хронологический и сравнительный анализ. Делается вывод, что в Узбекистане в годы независимости благодаря созданию правового поля произошло немало позитивных изменений в деятельности архивов.

Abstract

The optimal functioning of the state archival system largely depends on the creation of a legal framework for their activities. The article describes the process of forming the legal foundations of archiving in Uzbekistan in the years of independence. Today, this topic has not been specially studied in the historical and archival literature. A small book by Sh.A. Khayitov va A.Kh.Khramraev “Archival legislation of the Republic of Uzbekistan” (2008) has been published, but it is a collection of laws and regulations on archival affairs, in which these legislative acts are not subjected to scientific analysis. The main sources for writing this article were the laws of the Republic of Uzbekistan on archival affairs and the corresponding decrees of the government of the republic. Electronic resources and existing scientific literature were also involved. In preparing the article, such methodological techniques were used as a retrospective method, a systematic approach, problem-chronological and comparative analysis. It is concluded that in Uzbekistan during the years of independence, due to the creation of a legal framework, there have been many positive changes in the activities of archives.

Kalit so‘zlar: arxiv ishi, huquqiy asos, qonun, qonunosti hujjatlar, bitim, qaror, “O‘zarxiv” agentligi, Milliy arxiv fondi, milliy arxivlar, davlat arxivlari, idoraviy arxivlar.

Ключевые слова: архивное дело, правовая основа, закон, подзаконные акты, соглашение, постановление, агентство “Узархив”, Национальный архивный фонд, национальные архивы, государственные архивы, ведомственные архивы.

Key words: archiving, legal basis, law, by-laws, agreement, decree, “Uzarchiv” agency, National Archive Fund, national archives, state archives, departmental archives.

KIRISH. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng halqimizning o'z tarixiga bo'lgan qiziqishi beqiyos darajada ortdi. Sovet davrida obdon soxtalashtirilgan Vatanimiz tarixini xolisona, yangi konseptual-metodologik asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu hol halqning tarixiy xotirasi bo'lmish arxivlar faoliyatini tubdan yaxshilash vazifasini kun tartibiga qo'ydi.

Istiqlolga erishgan O'zbekiston huquqiy davlat barpo etish sari yo'l tutdi. Buning mazmuni shundan iboratki, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonun ustivor bo'lmog'i darkor. Bu arxiv ishi sohasiga ham taalluqlidir. Shuning uchun mustaqil O'zbekistonda arxiv ishining huquqiy asoslarini yaratishga e'tibor qaratildi.

Arxiv ishining *huquqiy asosi* deganda sohaga tegishli qonunlar hamda ularga mos ravishda chiqarilgan qonunosti hujjatlar – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, hukumat qarorlari, nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalar, shuningdek, O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan imzolagan va kuchga kirgan ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalar tushuniladi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxiv qonunchiligining vujudga kelish jarayonini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Hozirgi kunga qadar ushbu mavzu tarix va arxivshunoslik fanida maxsus o'rganilmagan. Sh.A.Hayitov va A.H.Hamroyevlarning "O'zbekiston Respublikasi arxiv qonunchiligi" (2008) nomli kitobchasi amalda arxivlar faoliyatiga doir qonun va qarorlar to'plami bo'lib, unda mazkur qonunchilik hujjatlari ilmiy jihatdan tahlil etilmagan. Mavzuga doir ayrim ma'lumotlar M.S.Isaqova qalamiga mansub "O'zbekistonda arxiv ishining vujudga kelishi va rivojlanishi" (2012) nomli monografiyada [8] hamda ushbu satrlar muallifining o'z hamkasblari M.F.Rasulov va N.M.Hamayevlar bilan birgalikda e'lon qilgan "Mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxiv ishi" (2014) nomli maqolasida [7] uchraydi.

Maqolani yozishda rasmiy hujjatlar, ya'ni O'zbekistonning arxiv ishiga doir qonunlari va respublika hukumatining mazkur masala bo'yicha qabul qilgan qarorlari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, maqolani ta'lif etishda elektron resurslar hamda mavjud ilmiy adabiyotlar jalb etildi. Qo'yilgan vazifani hal etish jarayonida tarix fanida keng qo'llaniladigan retrospektiv usul, tizimli yondashuv, muammoviy-xronologik va qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublika hukumati arxivlar faoliyatiga alohida e'tibor berdi. 1992-yil 19-iyunda hukumat "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi ("O'zbosharxiv") to'g'risidagi Nizom" ni tasdiqladi hamda "Respublika markaziy davlat arxivlari tarmog'ini tasdiqlash to'g'risida" qaror qabul qildi. Nizomda respublikada arxiv tizimini boshqaruvchi davlat organi – Bosh arxiv boshqarmasining vakolatlari va funksiyalari belgilab berildi. Qabul qilingan qarorda esa respublikada 3 ta markaziy davlat arxivi – O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, O'zbekiston Respublikasi kino, suratli va ovozi hujjatlar markaziy davlat arxivi, O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari markaziy davlat arxivi faoliyat ko'rsatishi belgilab qo'yildi [7, 318-319].

SSSR tarqalib ketgach, undan meros bo'lib qolgan arxiv hujjatlarini yangi tashkil topgan mustaqil davlatlar o'rtasida taqsimlash masalasi ko'ndalang bo'ldi. Bu borada 1992-yil 6-iyulda Moskva shahrida MDHga a'zo bo'lgan 10 ta davlat (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi) rahbarlari "Sobiq SSSRning davlat arxivlariga vorislik qilish to'g'risida" bitim imzoladilar. Bitimga ko'ra, har bir davlat o'z hududida joylashgan arxivlarni o'z tasarrufiga olishiga kelishib olindi. Ayni vaqtda sobiq respublikalarning ular hududida yaratilgan, ammo turli sabablarga ko'ra boshqa arxivlarga olib ketilgan arxiv hujjatlarini qaytarib olish huquqi e'tirof etildi. Agar hujjatlarni yaxlit arxiv komplekslari tarkibidan ajratib olishning iloji bo'lmasa, unda ular mazkur hujjatlarning ko'chirma nusxalarini olish huquqiga ega ekanligi ta'kidlandi. Ta'kidlab o'tish joizki, mazkur bitimga binoan mustaqillik yillarida O'zbekistonga Rossiya Federatsiyasi va boshqa postsovet respublikalari arxivlaridan minglab hujjatlarning ko'chirma nusxalari olib kelindi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda [8, 119].

O'zbekistonda arxivlar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishda Oliy Majlis tomonidan 1999-yil 15-aprelda qabul qilingan "Arxivlar to'g'risida" gi Qonun muhim qadam

TARIX

bo'ldi. Qonun loyihasini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, xalqaro me'yoriy hujjatlar hamda MDH va olis xorij mamlakatlarining qonunchilik tajribasi e'tiborga olindi. Ushbu qonun O'zbekistonda qabul qilingan arxiv ishiga doir dastlabki qonunchilik hujjati edi.

Qonunda birinchi marotaba "arxiv", "arxiv hujjatlari", "arxiv fondi", "arxiv ishi", "arxiv hujjatlarini doimiy saqlash", "arxiv hujjatlarini vaqtincha saqlash" kabi tushunchalarning mazmuni ochib berildi. Ilk marotaba qonunda "Milliy arxiv fondi" tushunchasi qo'llanildi hamda MAF davlatga tegishli va davlatga tegishli bo'lmagan qismlardan iborat bo'lishi belgilandi. Qonunda jamoat tashkilotlari va jismoniy shaxslarning arxiv hujjatlariga mulkdorlik qilishlari mumkinligi e'tirof etildi. Bu holat jamiyat uchun negativ oqibatlarga olib kelmasligi uchun, qonunda barcha arxiv hujjatlari, mulkdorlik shaklidan qat'i nazar, davlat tomonidan hisobga olinishi, shuningdek, noyob va alohida qimmatga ega hujjatlarni chet elga olib chiqish man etilishi ta'kidlandi. Qonunda arxivlarni tuzish va ularni tugatish tartibi, idoraviy arxivlarning vazifalari, arxiv muassasalarining moliyalash va boshqa qator masalalar o'z aksini topdi. Ushbu qonun O'zbekiston arxiv fondlarining yaxlitligini saqlash, hujjatlarni hisobga olish, ekspertiza qilish, ro'yxatdan o'tkazish, arxivlarni butlash va arxiv hujjatlaridan foydalanishning yagona tartibini belgilab berdi [1, 184-193].

Istiqlol yillarida ilk marotaba oldingi davrlarda O'zbekistondan olib ketilgan arxiv hujjatlarini qaytarish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Bu muammo eng oliy darajada – respublika parlamentida ko'rib chiqildi. Natijada turli sabablarga ko'ra O'zbekistondan xorijga olib ketilgan arxiv hujjatlarini olib kelish bo'yicha 1999-yil 11-mayda O'zbekiston Oliy Majlisi huzurida maxsus komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiyaning asosiy vazifasi o'tmishda O'zbekistondan chet elga olib ketilgan, ilmiy ahamiyatga molik hujjatlarni aniqlash, ularni o'rganish va mamlakatimizga qaytarib olib kelish bo'yicha tegishli davlat tashkilotlariga takliflar kiritishdan iborat, deb belgilandi [9, 68].

"Arxivlar to'g'risida" qonun qabul qilingandan keyin mavjud me'yoriy hujjatlarni unga mos ravishda qayta ko'rib chiqish va yangi normativ hujjatlarni qabul qilish zarurati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'zining 1999-yil 30-oktyabrdagi 482-sonli qarori bilan 4 ta ana shunday me'yoriy hujjatlarni tasdiqladi:

- "O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi to'g'risidagi Nizom";
- "O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish Tartibi";
- "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi (O'zbosharxiv) to'g'risidagi Nizom";
- "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardagi idoraviy arxivlar to'g'risidagi Namunaviy Nizom" [10].

Mazkur hujjatlarning qabul qilishdan asosiy maqsad arxiv ishining turli qirralarini qamrab olish, Milliy arxiv fondining to'liqligini ta'minlash hamda fuqarolar, jamiyat va davlatning ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, ekspertiza qilish, davlat ro'yxatiga olish va ulardan foydalanishning yagona tartibini belgilash edi. Ushbu me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi va hayotga tadbiiq etilishi arxiv ishini qadam-baqadam yaxshilash imkoniyatini berdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, istiqloq yillarida arxiv ishida ro'y bergan muhim yangilik – bu Milliy arxiv fondining tashkil etilishi bo'ldi. MAFning tashkil etilishi nafaqat davlat arxiv fondlari, balki nodavlat yuridik shaxslarga va ayrim fuqarolarga tegishli bo'lgan muhim hujjatlarni ham hisobga olish va asrab qolishga yo'l ochdi.

Mustaqillik yillarida arxiv tizimini boshqaruvchi vakolatli davlat organlarining faoliyati tubdan yaxshilashga e'tibor berildi. Shu maqsadda 2004-yil 3-fevralda O'zR Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qildi. Ushbu qarorga binoan, hukumat huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi ("O'zbosharxiv") tugatilib, uning o'rniga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi ta'sis etildi. Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimliklarining arxiv bo'limlari negizida hududiy arxiv boshqarmalari tashkil etildi. "O'zarxiv" agentligi va hududiy arxiv boshqarmalari zimmasiga respublika va mintaqalar miqyosida arxiv ishi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish vazifasi yuklatildi [3, 7-9].

O'zbekistonda "Arxivlar to'g'risida"gi qonun birinchi marta qabul qilinganligi bois, keyinchalik unda arxivlar faoliyatining ko'p jihatlari o'z aksini topmagani ma'lum bo'ldi. Shuning uchun qonunga ma'lum o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish zarurligi ayon bo'ldi. 2004-yilning 30-aprelida Oliy Majlis "Arxivlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahririni qabul qildi [4, 90-modda].

Qonunning yangi tahriri va hukumatning arxivlar faoliyatiga doir qarorlarida belgilangan vazifalarni hayotga tadbqiq etib, "O'zarxiv" agentligi o'zining 2007-yil 4-yanvardagi 1-sonli buyrug'i bilan "O'zbekiston Respublikasi davlat arxivlarining ish qoidalari" ni tasdiqladi. Ushbu qoidalarni ishlab chiqishda davlat arxivlari oldiga qo'yilgan talablar, shuningdek, ko'p yillik arxiv ishi amaliyoti inobatga olindi. Qoidalarda davlat arxiv muassasalarining MAFni tashkil etish, hujjatlar saqlanishini ta'minlash, ularni hisobga olish, arxiv hujjatlarining ilmiy-malumotnoma apparatini yaratish, hujjatlarni ekspertiza qilish, ulardan foydalanishni tashkil etish borasidagi vazifalar o'z aksini topdi.

Arxiv ishi sohasidagi muammolarni kompleks tarzda hal etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2008-yil 26-avgustda "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror qabul qildi. Ushbu qaror bilan hukumat "2011-yilga qadar arxiv ishi va ish yuritishni rivojlantirish Dasturi" ni tasdiqladi. Mazkur hujjatda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutildi:

elektron arxivlar hamda ma'lumot uzatishning korporativ tizimini vujudga keltirish va integrasiyalashgan arxiv muassasalari tizimini barpo etish;

respublika bo'yicha barcha odamlar kirib ko'rishi mumkin bo'lgan arxiv ma'lumotlari bazasini yaratish;

arxiv ishi va ish yuritish bo'yicha xodimlarning malakasini oshirish tizimini shakllantirish [5, 12-20].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda arxiv ishining qonunchilik bazasi sezilarli darajada mustahkamlanib borganligini kuzatish mumkin. "Arxivlar to'g'risida" gi 1999-yil 15-aprelda qabul qilingan qonun, uning 2004-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahriri hamda ularga mos ravishda tasdiqlangan boshqa me'yoriy hujjatlar arxiv ishini rivojlantirishda g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunda va qonunosti hujjatlarda belgilangan vazifalarni hayotga tadbqiq etilishi arxiv ishi amaliyotida jiddiy ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, mustaqillik yillarida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida uzluksiz ravishda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu hol ish yuritish va arxiv ishini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida rivojlantirishni taqozo etdi. Natijada arxiv ishining huquqiy bazasini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga keldi. Shularni hisobga olgan holda, "O'zarxiv" agentligi arxiv ishiga doir yangi qonun loyihasini ishlab chiqdi.

2008-yil 26-dekabrda Toshkent shahrida "O'zarxiv" agentligi huzurida faoliyat olib borgan Arxiv ishi bo'yicha jamoatchilik Kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda agentlik tomonidan taqdim etilgan arxivlar to'g'risidagi yangi qonun loyihasi muhokama qilindi. Yig'ilishda qonun loyihasi ma'qullandi, ayni vaqtda uning mazmunini boyitishga qaratilgan takliflar ilgari surildi. Jumladan, yig'ilish qatnashchilari tomonidan qonun loyihasiga yangi tushunchalar kiritish, arxivlarni boshqaradigan markaziy va mahalliy davlat organlari vakolatlarini aniqlashtirish, MAFni shakllantirish yo'llarini ko'rsatish, arxiv hujjatlariga mulkdorlik masalalariga aniqlik kiritish, arxivlarning turlari va ularning vazifalarini tavsiflab berish to'g'risida takliflar kiritildi.

Arxiv ishi bo'yicha jamoatchilik kengashi tomonidan ilgari surilgan takliflar Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport bo'yicha qo'mitasiga taqdim etildi. Qo'mita a'zolari 2009-yilning fevral oyida "O'zarxiv" agentligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyat davlat arxivlarida "Arxivlar to'g'risida" gi qonun ijrosini tahlil etib, yangi qonun loyihasini ishlab chiqish zarurligini ta'kidladilar. Deputatlarning fikriga ko'ra, qator omillar yangi qonunni qabul qilishni taqozo etardi. Avvalambor, eski qonun faqat davlat arxivlari faoliyatini qamrab olgan

TARIX

edi, unda idoraviy arxivlar ishini tashkil etishga yetarli e'tibor berilmagan edi. Ikkinchidan, avvalgi qonunda arxiv ishida keng qo'llaniladigan talay tushunchalar – atamalarga izoh berilmagan edi. Uchinchidan, unda arxiv ishini boshqarishga mutasaddi bo'lgan vakolatli davlat organlarining funksiyalari batafsil ochib berilmagan edi. To'rtinchidan, avvalgi qonunda nodavlat arxivlar faoliyatining yuridik asoslari o'z aksini topmagan edi. Beshinchidan, ushbu qonunda MAFga kirmagan arxiv hujjatlarini hisobga olish va saqlash masalalari o'z aksini topmagan edi. Oltinchidan, korxonalar, muassasa va tashkilotlar qayta tashkil etilganda, barham topganda yoki xususiylashtirilganda ularning arxivlari taqdiri e'tibordan chetda qolgan edi [8, 29-30].

O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida" gi yangi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2009-yil 3-noyabrda qabul qilindi, Senat Kengashida 2010-yil 7-mayda ma'qullandi [2].

"Arxiv ishi to'g'risida" gi qonun oldingi qonundan jiddiy ravishda farq qiladi. Avvalgi qonun 21 moddadan iborat bo'lib, boblarga bo'linmas edi. Yangi qonun esa 6 ta bob va 35 moddadan iborat. Yangi qonunning boblarga bo'linishi va moddalar miqdorining ortishi unda arxiv ishining yangi-yangi qirralarini qamrab olish imkoniyatini berdi. Yangi qonunda "alohida qimmatli hujjat", "noyob hujjat", "ish yuritish", "Milliy arxiv fondining davlat katalogi", "sug'urta nusxa", "shaxsiy tarkib hujjatlari" kabi yangi tushunchalar kiritildi.

"Arxiv ishi to'g'risida" gi yangi qonunning alohida bobi arxiv ishi sohasida davlat boshqaruvi masalasiga bag'ishlangan. Unda arxiv ishini boshqarish sohasida Vazirlar Mahkamasi, "O'zarxiv" agentligi hamda mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari aniq ko'rsatib o'tilgan. Yangi qonunda Milliy arxiv fondining tarkibi, hujjatlarni MAF tarkibiga kiritish va uning tarkibidan chiqarish, MAFning davlat katalogini yuritish masalalari o'z aksini topgan. Shuningdek, qonunga hujjatlar qimmatdorligini aniqlash ekspertizasi, arxiv hujjatlarini kirib ko'rish, arxivlar va idoraviy arxivlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, arxivlarning turlari to'g'risidagi yangi moddalar kiritildi.

"Arxiv ishi to'g'risida" gi yangi qonun arxivlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan yangi me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishiga asos bo'ldi. O'zR Vazirlar Mahkamasi o'zining 2012-yil 5-aprelda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to'g'risida" gi qarori bilan arxivlar faoliyatining turli yo'nalishlarini tartibga solishga qaratilgan quyidagi yangi nizomlarni tasdiqladi:

- "Arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida Nizom";
- "O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi Davlat katalogi to'g'risida Nizom";
- "Arxivlarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi to'g'risida Nizom";
- "Arxivlar va idoraviy arxivlar tomonidan xizmatlar ko'rsatish tartibi to'g'risida Nizom";
- "Arxiv mutaxassislarini O'zbekiston Respublikasi korxonalarini, muassasalari va tashkilotlari hujjatlarini tartibga keltirishga kompetentligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom";
- "Arxiv hujjatlarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish va arxiv hujjatlarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish tartibi to'g'risida Nizom" [6, 124-132].

Yuqorida sanab o'tilgan nizomlarning tasdiqlanishi va amaliyotiga joriy qilinishi arxivlar faoliyatini zamon talabiga mos ravishda tashkil etish, hujjatlarni arxivlarda ehtiyot qilib saqlash va ulardan har tomonlama foydalanish, arxiv xodimlarining kasbiy tayyorgarligini muntazam ravishda oshirib borish imkoniyatini berdi.

2019-yil 20-sentyabrda O'zR Prezidenti "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni imzoladi. Unga ko'ra, O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligining nomi "O'zbekiston Respublikasining "O'zarxiv" agentligi" deb o'zgartirildi. Natijada bu tuzilmaning boshqaruv tizimidagi maqomi ancha oshdi. Ushbu Farmonga muvofiq, respublika markaziy davlat arxivlari hamda Toshkent shahar davlat arxivining maqomi o'zgardi. 3 ta markaziy davlat arxiviga "milliy arxiv" maqomi berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi negizida O'zbekiston Milliy arxivi, O'zbekiston Respublikasi kino, foto va fono hujjatlar markaziy davlat arxivi negizida

O'zbekiston kino, foto va fono hujjatlar milliy arxivi; O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari markaziy davlat arxivi negizida O'zbekiston ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi tuzildi. Toshkent shahar davlat arxivi negizida Toshkent shahar markaziy davlat arxivi tashkil etildi. Bundan tashqari, Farmonda "O'zarxiv" agentligi huzurida muassasa shaklida Arxiv ishi va ish yuritish bo'yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi hamda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Arxiv ishini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etish nazarda tutildi. Farmonda Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari zimmasiga shahar va tuman hokimliklari qoshida tashkil etilgan idoralararo shaxsiy tarkib arxivlarini "O'zarxiv" agentligi tasarrufiga o'tkazish, shahar va tuman arxivlaridagi tarixiy hujjatlarni viloyat davlat arxivlariga o'tkazish hamda shahar va tuman arxivlari negizida shaxsiy tarkib bo'yicha davlat arxivlarini tashkil etish vazifasi yuklatildi [11].

Prezident Farmonida hozirgi davrda arxiv ishi va ish yuritishni rivojlantirishning quyidagi asosiy ustivor yo'nalishlari belgilab berildi:

- arxiv ishi va ish yuritish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini jadallik bilan joriy etish, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish va sug'urta nusxalarini yaratish;
- arxiv hujjatlarini maxfiylikdan chiqarish ishlarini faollashtirish orqali arxiv axborotlaridan foydalanuvchilar sonini kengaytirish;
- arxiv xizmatlarini bosqichma-bosqich Davlat xizmatlari markazlari hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilishini tashkil etish;
- arxivlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda infratuzilmasini modernizatsiya qilish, arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanishning zamonaviy usullarini joriy etish;
- arxiv ishi va ish yuritish sohasida xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadbqiq etish yo'li bilan kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy qilish;
- soha xodimlarini moddiy rag'batlantirishni yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirishning ilg'or va shaffof mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbqiq etish [11].

"Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan keng qamrovli vazifalarni hayotga tadbqiq etish arxivlarni boshqaruvchi vakolatli davlat organlari faoliyatini tubdan yaxshilashni talab qildi. Shu boisdan ko'rsatib o'tilgan sanada Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori ham imzolandi. Qarorda "O'zarxiv" agentligining hozirgi davrdagi eng asosiy vazifalari belgilab berildi.

Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasida 2020-2025 yillarda arxiv ishi va ish yuritishni yanada rivojlantirish Dasturi tasdiqlandi. Ayni vaqtda besh yil mobaynida davlat arxivlari binolari va saqlovxonalarini qurish hamda mavjud arxiv binolarini rekonstruksiya qilish rejasi qabul qilindi. Mazkur Qarorda arxiv muassasalari va tashkilotlari uchun yangi shtat birliklari ajratildi, barcha toifadagi arxiv xodimlarining lavozim maoshini belgilashda tarif koeffitsienti 1,6 baravarga oshirgan holda qo'llanilishi belgilandi. "O'zarxiv" agentligi markaziy apparati va hududiy boshqarmalar xodimlariga sohada uzoq muddat mehnat qilganligi uchun ustama haq berilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10- noyabrda qabul qilingan 706-sonli qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi davlat arxivlari o'quv zallarida foydalanuvchilarning arxiv hujjatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi. Nizomda arxiv hujjatlaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, ularning arxiv o'quv zallarida hujjatlardan foydalanishi tartibi belgilandi [12].

XULOSA. O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida" gi Qonuni, shuningdek, nomlari yuqorida eslatib o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 20-sentyabrdagi Farmoni va Qarori hozirgi tarixiy sharoitda mamlakatimizda arxiv ishini rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturi bo'lib xizmat qilmoqda.

TARIX

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxiv ishi sohasida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlar ko'p jihatdar respublikada arxiv ishining huquqiy asoslarini yaratilishi bilan bog'liq edi. O'zbekiston Respublikasining parlamenti – Oliy Majlis va hukumati – Vazirlar Mahkamasi ushbu masalani doimiy e'tiborda saqlagan holda, zamon talablariga mos ravishda arxiv ishining huquqiy asoslarini doimiy ravishda takomillashtirib bormoqdalar.

ADABIYOTLAR / Литература / References**Qonunchilik hujjatlari, hukumat qarorlari / Законодательные акты, постановления правительства / Legislative acts, government decrees**

1. Архивлар тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 15 апрель Қонуни // Ўзбекистоннинг янги қонуни. 21-сон. – Тошкент: Адолат, 1999. – Б. 184-193.

(About archives: Law of the Republic of Uzbekistan of April 15, 1999. – New laws of Uzbekistan. № 21.– Tashkent: Adolat, 1999. S. 184-193).

2. Архив иши тўғрисида: Қонунчилик палатаси томонидан 2009 йил 3 ноябрда қабул қилинган; Сенат Кенгашида 2010 йил 7 майда маъқулланган. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2010 йил, 24-25-сон. – Тошкент, 2010. – Б. 4-16.

(About the archive case: The law of the Republic of Uzbekistan was adopted by the Legislative chamber on November 3, 2009, approved by the Council of the Senate on May 7, 2010 // Collection of legislative acts of the Republic of Uzbekistan. № 24-25, 2010. – Tashkent, 2010. – S. 4-16).

3. Ўзбекистон Республикасида архив ишини бошқаришни такомиллаштириш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 3 февраль қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 5 (89)-сон. 2004, февраль. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги, 2004. – Б. 7-9.

(On the improvement of archival work in the Republic of Uzbekistan: Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan of February 3, 2004 // Collection of legislative acts of the Republic of Uzbekistan. № 5 (89), February, 2004. – Tashkent: Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, 2004. – S. 7-9).

4. Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 30 апрелда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 621-II-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 2004. № 5. 90-модда.

(Law of the Republic of Uzbekistan № 621-II “On amendments and additions to some legislative acts of the Republic of Uzbekistan” of April 30, 2004 // Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. 2004. № 5. Article 90.

5. Ўзбекистон Республикасида архив ишини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 26 август қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 35-36 (327-328)-сон. 2008, август-сентябрь. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги, 2008. – Б. 12-20.

(On measures for the further development of archiving in the Republic of Uzbekistan: Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan of August 26, 2008 // Collection of legislative acts of the republic of Uzbekistan. № 35-36 (327-328). 2008, august-september. – Tashkent: Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, 2008. – S. 12-20.

6. Ўзбекистон Республикасида архив ишини такомиллаштириш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 5 апрель қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 15 (515)-сон. 2012 йил, 16 апрель. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги, 2012. – Б. 24-132.

(On the improvement of archival work in the Republic of Uzbekistan: Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan of April 5, 2012] // Collection of legislative acts of the Republic of Uzbekistan. № 15 (515). April 16, 2012]. – Tashkent: Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, 2012. – S. 124-132).

Адабиётлар / Литература / Literature

7. Арслонзода Р.А., Расулов М.Ф., Ҳамаев Н.М. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда архив иши // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” ғавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона шаҳри, 2014 йил 30 май. – Фарғона, 2014. – Б. 318-319.

(Arslonzoda R.A., Rasulov M.F., Hamayev N.M. Archiving in Uzbekistan during the years of independence // Materials of the III republican scientific conference on the topic “The history of the Fergana valley in new research”. – Ferghana, 2014. – S. 318-319).

8. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012. – 204 с.

(Isakova M.S. The formation and development of archiving in Uzbekistan. – Tashkent: University, 2012. – 204 s.

9. Ҳайитов Ш.А., Ҳамроев А.Ҳ. Ўзбекистон Республикасида архив қонунчилиги. – Бухоро, 2008. – 86 б.

(Hayitov Sh.A., Hamroyev A.H. Archival legislation in the Republic of Uzbekistan. – Bukhara, 2008. – 86 s.)

Электрон ресурслар

10. <https://lex.uz/docs>

11. <https://uza.uz/ru/posts>

12. <https://www.norma.uz/uz>

(Taqrizchi: M.Isomiddinov - tarix fanlari doktori, professor)